

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Р.З.Хайров	
Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства	106
X.A.Madaminov	
Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili	114
S.T.Xakimov, M.N.Murodova	
10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....	120
A.N.Qosimov	
Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....	125
S.T.Xakimov, K.M.Uktamova	
Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish	130
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	134
Z.N.Usmonov	
Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi	140
A.I.Tuychiyev	
Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funksional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....	145
Sh.D.Ismoilov	
Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasining nazariy asoslari	151
T.T. Yusupov	
Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili	156
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....	162
M.X.Komilova	
G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati	168
N.R. Mansurova	
Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	172
A.K.Yusupova N.A.Aliyev	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari	180
G.Sh. Latipova	
Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	184
N.O. Xaydarova	
Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
М.М.Боркошев	
Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....	195
S.S.Ubaydullayev	
Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	199
Z.N.Ortiqova	
Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri	203
М.М.Умаралиева	
Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов	207
Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva	
Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari	211
H.A.Saipova, X.I.Obidova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....	215



UO'K: 37.013+78.06

**MILLIY MUSIQIY MEROSNI ASRAB-AVAYLASHNING IJTIMOIIY AHAMIYATI VA
TARBIYAVIIY XUSUSIYATLARI****СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ****SOCIAL SIGNIFICANCE AND EDUCATIONAL CHARACTERISTICS OF PRESERVING
NATIONAL MUSICAL HERITAGE****Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy musiqiy merosni saqlashning dolzarbligi hamda milliy musiqa san'atining durdona namunalarining yosh avlod tarbiyasidagi va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishdagi ijtimoiy ahamiyati tahlil etiladi. Unda milliy musiqa nafaqat estetik hodisa, balki jamiyat hayotidagi muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida e'tirof etilib, uning inson tarbiyasidagi tutgan o'rni yoritiladi. Ayniqsa, maqom san'ati, ustoz-shogird an'analari, ijrochilik maktablari va uslublarini asrab-avaylash hamda ularni kelgusi avlodlarga to'laqonli va sof shaklda yetkazish zarurati ta'kidlanadi. Milliy musiqaga qadriyat asosida yondashish yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada milliy musiqa merosining ijtimoiy ahamiyatini ochib berishda an'anaviy pedagogik yondashuvlar samarali qo'llanilgan bo'lib, ustoz-shogird maktabi og'zaki professional musiqa an'alariga tayanishi bilan alohida e'tiborga loyiqdir.

Аннотация

Цель данной статьи – подчеркнуть актуальность сохранения национального музыкального наследия и социальную значимость шедевров национального музыкального искусства в воспитании и становлении современной молодежи. Объясняется, что искусство национальной музыки является важным социальным явлением не только в жизни молодежи, но и общества в целом, а также играет значительную роль в процессе воспитания личности. Одной из приоритетных задач является сохранение и передача будущим поколениям нашей классической музыки, в частности, искусства макома, его исполнительских традиций, традиций «мастер – ученик», школ и стилей исполнения, которые составляют основу национального музыкального наследия. Эти аспекты требуют ценностного подхода к национальному музыкальному искусству и имеют особое значение для духовного, образовательного и воспитательного развития молодежи. В статье подчеркивается, что при освещении социальной значимости национального музыкального наследия в основном используются традиционные методы. Обучение по системе «мастер – ученик» базируется на устной профессиональной музыкальной традиции, эффективность которой доказана на практике среди молодых исполнителей.

Abstract

This article analyzes the urgency of preserving the national musical heritage and the social significance of the masterpieces of national musical art in shaping the upbringing of the younger generation and nurturing them as well-rounded individuals. National music is considered not merely an aesthetic phenomenon but a crucial socio-cultural element in both society and human education. Particular attention is paid to the preservation and transmission of the art of maqom, its performing traditions, stylistic schools, and the teacher-student model to future generations in their authentic form. A value-based approach to national music is emphasized as an essential factor in developing young people's spiritual and aesthetic worldview. The article also highlights the effectiveness of traditional pedagogical approaches rooted in oral professional music traditions, especially the ustoz-shogird (master-apprentice) system.

Kalit so'zlar: Milliy musiqa san'ari, milliy mumtoz musiqa, maqom san'ati, milliy musiqiy meros, an'analar, qadriyatlar, musiqiy estetika, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy dunyoqarash.

Ключевые слова: Национальное музыкальное искусство, национальная классическая музыка, искусство макома, национальное музыкальное наследие, традиции, ценности, музыкальная эстетика, музыкальный вкус, музыкальное мышление, музыкальное мировоззрение.

Key words: National musical art, national classical music, maqom art, national musical heritage, traditions, values, musical aesthetics, musical taste, musical thinking, musical worldview.

KIRISH

Bugungi kunda san'atshunoslik ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ham milliy qadriyatlarni asrash, xususan, milliy musiqiy merosni asrashga doir turli tadbirlar, loyihalar va ta'limiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali o'zbek milliy musiqiy merosni qadrlash, uni asrab-avaylashga doir qadriyatli faoliyatni yo'lga qo'yish maqsad qilinmoqda. Bunday hukumat darajasidagi islohotlar negizida milliy musiqiy merosni asrashga doir ilmiy tadqiqotlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali millatning milliy xususiyatlarini saqlab qolish, uning tarixiga bo'lgan munosabatini yosh avlodlarga bilim sifatida qoldirish hamda unga qadriyatli munosabatni qaror toptirish ko'zda tutilmoqda. Shu bois ham milliy musiqiy merosni asrashga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari belgilab olingan.

Musiqiy bilim bu musiqaga doir nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishdir. Ta'lim jarayonida olingan bilimlar inson ongiga ta'sir etadi.

Musiqiy ong - inson ruhiyatining yuqori darajasi bo'lib, musiqiy madaniyatning negizini tashkil etadi. Talaba-yoshlar o'zlarining musiqiy bilim va ko'nikmalarini o'z ongida idrok etmay turib, amaliy-ijodiy faoliyatga tayyor bo'la olmaydi. Shuning uchun ham talaba-yoshlarda musiqiy madaniyatni yuksaltirishda ularni musiqiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish muhim hisoblanadi.

Musiqiy bilimlarni shaxs ongida idrok etilishi uning hissiyatini qo'zg'aydigan, insonda huzur-halovat, quvonch va g'amginlik kabi his-tuyg'ularni paydo qiladigan holatdir. Inson musiqani yuksak estetik his qilgandagina musiqa unga estetik ta'sir etadi. Ana shu jarayonda shaxsning musiqaga oid bilimlari ehtiyojga aylanib, e'tiqod shakllanadi. Ana shu e'tiqod asosida musiqiy mahorat paydo bo'lib, musiqiy madaniyatni shakllantirish malaka va ko'nikmasini paydo qiladi va u muayyan faoliyatga aylansa, musiqiy madaniyat shakllangan bo'ladi. Demak, bizningcha, musiqiy bilimlarning rivojlanishi – bu insonda musiqiy-nazariy bilimlarni egallash va uni ongida idrok etishi natijasida paydo bo'lgan estetik his-tuyg'ularning ma'lum ehtiyojga va undan e'tiqodga aylanishi asosida paydo bo'lgan musiqiy mahorat va malaka hamda ko'nikmalarning muayyan faoliyatga aylanishidir. Xullas, musiqiy madaniyat deganda musiqa vositasida voqea hodisalardagi nafosatni his etish, ulardan zavqlanish, asrab-avaylash va boyitish evaziga o'zlashtirilgan musiqiy bilim va faoliyati darajasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagog olimi B.Karamatova o'z tadqiqotida musiqiy-pedagogik ta'limni takomillashtirish, umumiy ta'lim maktabi yoshidagi o'quvchilarda milliy-musiqiy bilimlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj ortib borayotgan hozirgi davrda qadimiy musiqiy qadriyatlarni maktab ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy etish muammolarini tahlil qilgan [1,19].

San'atshunos olimi N.R.Hasanovanning tadqiqotida musiqiy tanqidchilikning O'zbekiston tajribasidagi eng dolzarb nazariy muammolari – O'zbekistonda musiqiy tanqidchiligi masalalariga bag'ishlangan. Unda tanqidchilik idrok etish san'ati sifatida, musiqiy-tanqidiy janrlar, badiiy madaniyat va jamiyat musiqiy hayotida musiqiy tanqidchilikning ahamiyati masalalari nafaqat alohida bir kesimda, balki ko'p tarkibli tizimda yaxlit o'rganishga harakat qilingan [2,24].

Faylasuf olimi L.Bobayeva "Filosofsko-esteticheskie osnovy vostochnoy narodno-professionalnoy muzyki" nomli tadqiqotida sharq musiqasining tarixi, shakllanishi va rivojining falsafiy jihatlarini aniqlashga harakat qiladi va bu borda ko'plab olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot nafaqat falsafa fanlari sohasida, balki ta'lim tizimida o'zbek musiqasi tarixining pedagogik ildizlarini musiqiy madaniyat sohasini o'rganishda ham o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi [3,4-5].

Musiqani tushunish, ongli idrok etish, uning orombaxsh ta'sir kuchidan ma'naviy ozuqa olish yoshlarda madaniyatlilikning yuqori cho'qqisi vatanparvarlik va baynalminallik his-tuyg'ularini o'stirishga yordam beradi.

Bu borada maqsadga erishish uchun:

- vatanparvarlik va baynalminal yo'nalishidagi musiqiy asarlarni tanlash va bir tizimga solish, aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishning muntazamligi va samaradorligini oshirishga;
- musiqiy asarlarni tinglash va tahlil qilishda talabalarning hissiy faolligini ta'minlash orqali ongli idrok etish darajalarini orttirishga;

PEDAGOGIKA

- musiqa darslarida talabalarda vatanparvarlik va baynalminal tuyg'ularni tarbiyalash jarayonida o'qituvchining eng ta'sirchan va samarali pedagogik rahbarlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijrochilikning nazariy muammolarini hal etishga pedagogika fanlari doktori F.Xalilovning tadqiqot ishini misol qilib olish mumkin. Unda, xususan, repertuarni tanlash, o'quv materiali ustida ishlashga doir didaktik konsepsiya (vazifalar, prinsiplar, tizim, bosqichlilik) ishlab chiqilgan. Talabalarda sozandalik-ijrochilik ta'limi didaktikasini takomillashtirishning eng maqbul shart-sharoitlari, yo'llari, shakllari, metodlari, usullari va vositalari aniqlangan [4,216]

Tadqiqotchi olim D.Y.Saipova musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash murakkab jarayonligini ta'kidlagan holda, solfedjioga quyidagicha ta'rif beradi: "Solfedjio –italyancha solfeggio – notalar, musiqa belgilari, gammalarni kuylash –eshituv malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rganish uchun o'tkaziladigan vokal mashqlaridir. Solfedjio – musiqa asarlari va turli xil musiqiy mashqlarni notaga qarab, nota nomini aytib kuylash tariqasida olib borilishi mumkin. Solfedjio termini sol-fa notalari nomlaridan olingan. U o'qituvchidan darslarni tizimli va izchil ravishda olib borishni talab qiladi. Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tayotganlarida notaga qarab kuylash malakalarini asta-sekin, oddiydan-murakkabga qarab olib borsalar yuqori sinflarga o'tganda ular o'rganiladigan qo'shiqlarni bemalol notaga qarab kuylay oladilar. Notaga qarab kuylash – solfedjio musiqa savodi bilan uzviy ravishda olib boriladi. Musiqa savodi notalar joylashuvi, uzunligi, sanalishi haqida o'rgatsa, solfedjio orqali notalarni amalda kuylab ko'rish imkoniyati bo'ladi. Shuning uchun musiqa savodi va solfedjio parallel tarzda olib boriladi, ya'ni solfedjio va musiqa savodi yaxlit jarayonni o'z ichiga oladi", - deb ta'kidlaydi [5,108-109].

Musiqashunoslik fanida xalq cholg'u asboblari o'rganishga ma'lum darajada e'tibor berilgan. Shunga qaramay, bu dolzarb masalaning tadqiq talab tomonlari yana ancha. Shulardan biri an'anaviy xalq cholg'usi va unda ijro etilajak musiqa asarlarini ayni ana shu asar ijro etiladigan cholg'ular bilan qiyosli o'rganish masalasidir.

San'atshunos olim S.Xudoyberdiyev bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Sharq musiqa san'atida dutor va unda ijro etiladigan asarlar alohida mavqega ega. Dutor va uning tojik hamda o'zbek mumtoz musiqasidagi o'rni o'ziga xos ibratli an'anaga aylangan. Shu holatning o'ziyoq dutor hamda unda asrlar davomida ijro etilayotgan asarlar tadrijini o'rganishga turtki bo'ladi va ayni o'rinda, tadqiqotning ham zamonaviy, ham dolzarb jihatlarini dalillovchi omillardan biri sanaladi" [6,22].

Tadqiqotchi G.M.Najmetdinovning - O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining musiqa-pedagogika fakultetlari talabalarida kasbga qiziqishni shakllantirish muammosi bugungi kunda ta'lim muassasalariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligi, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, milliy maktab konsepsiyasini amaliyotga joriy etish, mustaqillik mafkurasi asosida ta'limning yangi shakllarini rivojlantirish, ushbu muammolarning hal qilinishi bugungi kunda oliy musiqa pedagogika ta'limi amaliyotidagi mutaxassislar tayyorlashda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari va vositalarini aniqlashga qaratilganligi bilan musiqiy madaniyatni shakllantirishni takomillashtirishda ahamiyatlidir.

Shuningdek, musiqa o'qituvchisi kasbga nisbatan olinganda uning badiiy-pedagogik faoliyatining eng muhim komponenti ekanligini aniqlanishi; musiqa o'qituvchisida kasbga qiziqishni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarining yo'nalishi va vazifalarini ularga yaxlit yondashgan holda aniqlanganligi; kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash va tajribadan o'tkazilishi; talabalarda bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbga qiziqishni shakllantirishning yangi tuzilmasi modeli yaratilganligi bilan muhimdir.

Musiqiy madaniyatga doir tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, san'atshunoslik doktori J.Rasultoyevning ilmiy ishidagi quyidagi elementlarni alohida qayd etishimizga to'g'ri keladi: cholg'u ijrochiligi va musiqasi konsepsiyasini yaxlit tasavvur qilish bilan birgalikda, milliy musiqaning muhim qatlami sifatida chuqurroq anglashga imkoniyat tug'iladi. Ijrochilik muammolarini nazariy tahlili hamda sozgarlar, sozandalar, dastalar, bastakorlar ijodiga, maktablar faoliyatiga ilmiy yondashishga zamin yaratiladi.

Tadqiqotda o'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligi madaniyati birinchi marta cholg'u, ijrochilik va musiqa tarkiblarini birlashtiruvchi yaxlit hodisa sifatida o'rganiladi. Maishiy turmush va madaniyatni

tovush hosil qilish tizimi va cholg'u ijrochiligi badiiy darajasiga ta'sirini tadqiq qilishga e'tibor qaratiladi. O'zbek musiqa sohasida birinchi marta xalq an'anaviy tafakkuri va sozanda tovush timsoli hamda "ijrochilik" tushunchasi konsepsiyasi ilmiy muomalaga kiritiladi [7,26].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Arxeologik tadqiqotlar o'zbek xalqi musiqa maldaniyatining ildizlari zardushtiylik dini va madaniy muhiti shakllangan davrga borib taqalishini ko'rsatib beradi. Zero, zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan Avestoda tanbur, vinig, chang, nay kabi kabi ko'plab cholg'u asboblari tilga olingan [8,19]. Manbaalarning guvohlik berishicha, Zardushtning o'zi ham tanburda kuylar ijro etgan. Shuningdek, Avrosiyob Harobalaridan surnay, doira, ushpulaklar ham topilgan bo'lib, eng muhimi, ular ushbu musiqa asboblarning hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Umuman, jahon olimlari O'zbekiston hududini kordofonlarning (torli soz) vatani deb tan olganlar. Torli sozlar eramiz boshlaridan turli yo'llar bilan dunyo xalqlariga tarqala boshlagan [9,336].

Milliy musiqiy madaniyatimizning tarkibiy tuzilishi, yo'nalishlari va ularning xususiyatlarini ham ko'rib chiqish tadqiqot ishining uzviy qismi hisoblanadi. Shu bois milliy musiqiy merosimizning tasnifi va uning tarflanishini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


O'zbek maqom san'ati. O'zbekistonda maqomlarning uch yo'li mavjud, ular Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridir. Maqomlar o'zbek xalqining bebaho xazinasi bo'lib, bu san'atning yaratilishi va kamoloti ajdodlarning beqiyos badiiy tafakkuri bilan bog'liq.

Maqom tushunchasi arab tilida musiqa tovushlarining "o'rnashgan joyi", ya'ni musiqa sozlarida "parda" degan ma'noda keladi. Umuman, kuy ma'nosida ham qo'llaniladi. Maqomlar – bu soz va so'z san'atining yuksak darajada uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladigan chuqur badiiy-estetik kuchga ega bo'lgan asarlardir. Maqom insonning oliyjanob fazilatlarini, his-tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga ega.

O'zbek maqom yo'nalishlari – bu nodir san'at, favqulodda noyob xodisa bo'lib, markaziy Osiyo xalqlari hayotida so'ngi asrlarda yuz bergan tarixiy o'zgarishlarning mahsulidir.

Maqom san'ati azaldan saroyning musiqiy javohiri sifatida qadr topgan bo'lib, u tarixdan ma'lum. Uning sofligini saqlashga Buxoro amirlari ham, Xiva xonlari ham o'zlarini mas'ul hisoblaganlar. Xususan, maqom bilimdonlariga xalq oldida bu san'atni namoyish etishga faqat bayram kunlari ruxsat berilar edi. Xonlarning maqomni bilib-bilmay ijro etuvchi xofizlarni jazoga tartishlari ham ularni qadrini va zalvorini achsrashga bo'lgan munosabatni ko'rish mumkin. O'zbek maqom merosining hajmi shu qadar ulkanki, birgina Shashmaqomni olsak, uning har bir qismida oltitadan o'ntagacha cholg'u kuylari, qirqtadan elliktagacha ashulla yo'llari mavjud bo'lib, hammasi bir biriga uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turgan 300 dan ortiq asardan iborat bo'lgan [10,68].

Buxoro shashmaqomini tugal ko'rinish olishini Ota Jalol, Xorazm maqomlarini Ko'hna Urganchlik Niyozjon Xo'ja, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini qashqarlik Xudoyberdi ustoz va Ashurali Mahramlarning xizmatlari bilan bog'laydilar [11,90]. O'zbek an'anaviy musiqasining muhtasham, buzilmas poydevori bo'lmish shashmaqom xalqning hayotini aks-sadosi, sevgi muhabbatining mangu kuylovchi epopiyalariga qiyoslash mumkin. 1950-yilda Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev tomonidan shashmaqomning Tojikiston varianti, akademik Yunus Rajabiy tomonidan "Shashmaqom" to'plami Toshkentda nashr etilgan.




1-rasm. O'zbek maqom san'ati

O'zbek maqom san'atining ikkinchi yo'nalishi Xorazm suvorolari bo'lib, bu go'zal durdona asarlar bugungi kunda jahon xalqlariga manzur bo'lmoqda. U qadim zamonlardan voha xalqi diliga hamohang bo'lgan ohang-nolalar bilan ziynatlangan, murakkab ruhiy kechinmalar, teran falsafiy fikrlar bilan jilolangan bir mo'jizadir. Biroq keyinchalik nomlanishlari o'zgargan va ularga yangiliklar olib kirilgan. Shu jihatlari bilan Xorazm maqomlari betakror va alohida yo'nalish sifatida qaror topdi.

O'zbek maqom san'atining alohida yo'nalishlaridan biri Farg'ona-Toshkent maqom yo'lidir. Mazkur yo'lining taraqqiyot bosqichi yuqoridagi ikki yo'ldar farq qilib, unda nafaqat saroy, balki saroydan tashqari muhitning ta'siri ham kuchli ekanligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Katta ashula yoki patnisaki ashula. Ikki, uchu yoki to'rt hofiz tomonidan sozlar jo'rligisiz ijro etiladigan yirik shakldagi bunday ashula turi o'zbek xalqi professional musiqa san'atining original janri hisoblanadi. Katta ashula marsiya, navha va boshqa ma'rosim qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy o'qilish qoidalari zahirida vijudga kelgan. Qo'qonlik Erkaqoqi, Mehmonqorilar, Marg'ilonda Jo'raxon Sultonovning ustozlari Boltatog'a, Mamatbuva, Zokirjon Ergashevlar, Andijonda Musajon, Norali hofizlar shunday yirik san'at darg'alri edi. Biroq o'zbek xalqining bunday betakror milliy musiqiy merosi uzoq vaqt e'tiborsizlik, tazyiq va ta'qiqlar hukmronligi ostida yashab keldi. Sohaning taraqqiyoparvarlari va yoshlarni bu san'at turlari bilan shug'ullanishlari, o'rganishlari va bilimlarini oshirishlari uchun birorta o'quv dargohi tashkil etilmadi. Faqatgina 1972-yilga kelib Toshkent davlat konservatoriyasida "Sharq musiqasi" kafedrasini ochilgan, xolos.




2-rasm. Katta ashula san'ati.

Baxshilik. Baxshi mo'g'ilcha va buryatchadagi "baxsha", "bag'sha" – "ma'rifatchi", "o'qituvchi" ma'nosidagi so'zlardan kirib kelgan degan qarashlar mavjud. Shuningdek, sanskrit tilida ham "darvesh", "qalandar" va "ma'rifat tarqatuvchi" ma'nolarni anglatuvchi "bihikshu" so'zi mavjud.

Biz baxshi deb ataydiganimiz xalq kuychilari turkmanlarda bag'shi, qoraqalpoqlarda baqsi deyilsa, qozqolarda ularni jirov, kavkaz xalqlarida ularni oshiq deyilgan.

Shuningdek, baxshilar O'zbekistonda ham turlicha nomlanadi. Masalan, Xorazmda baxshi, go'yanda, ayollar orasida xalfa, Surxondaryo va Qashqadaryoda shoir, soqiy va yuzboshi nomlari qo'llanilgan.



3-rasm. Baxshilik tushunchasi

Dostonlar kulanganda kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida milliy g'uru tuyg'usi yuzaga keladi. Shunday ma'naviy muhit ta'sirida o'quvchi va tinglovchilar ongu-tafakkuri shakllangan. Dostonlar xalq idealidagi tushuncha va tasavurlarni, ijtimoiy-siyosiy voqealarni badiiy uslubda bayon etish bilan birga, ularda xalqning ma'naviy dunyosi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, oxrodlik va tenglik uchun kurashlari, Vatanga bo'lgan muhabbati va sadoqati o'zining badiiy ifodasini topgan.

Baxshilik san'ati o'zbek milliy musiqiy merosining eng zalvorli qismi hisoblanadi. G'ozli Oliy o'z vaqtida samarqand atrofida, Toshkentning qochig'ali kentida, Farg'onaning Shaxrixon atrofida baxshilarning ijodini o'rgangan va ularning merosi hamda musiqachilarning san'atini millatning nodir boyligi sifatida baholagan edi [12,8-9]. Sobiq Sho'ro tuzimining milliy musiqa merosiga adolatsiz munosabati natijasi o'laroq, Buxaro, Samarqand, Namangan va Toshkent baxshichilik maktablari umuman yo'q bo'lib ketadi. Bu san'at ancha chuqur o'rin egallagan Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryoda saqlanib qoladi.

Xalfachilik. O'zbek xalqining yana bir milliy musiqiy merosi turi xalfachilikdir. "Xalfa" arabcha so'z bo'lib, "o'qimishli", "ustoz" degan ma'nolarni anglatadi. O'tmishda xotin-qizlar o'zlarining erkaklardan xoli bazmlarida ko'proq doira chalib yoki ikki bo'sh piyolani bir-biriga urishtirish natijasida chiqqan tovush bilan kulab kelganlar. Bu davrda xalfaning asosiy cholg'u sozi doira bo'lgan.

Tadqiqotchi olim Y.Yusupovning fikricha, Xonimjon xalfa Said Ahmadjon qizi 1895-yildan boshlab to'ylarda soz chalib kuylay boshlagan. Xorazm vohasi hududiga xos bu janr ayollar o'rtasida tarqalgan bo'lib, kitobiy dostonlar, rivoyatlar, hadislar ohang bilan ustoz xalfa (garmonda), doirachi va laparchi tomonidan ijro etilgan.

Xalq orasida "Ojiza" nomi bilan tanilgan Onabibi nafaqat mohir ijrochiligi, balki tinglovchi xotirasida bir umrga qoladigan kuylar to'qiganligi bilan ham nom chiqargan. Uning shogirdlari N.Sobirova, A.Quryozova, U.Boyjonovalar xalmifachilik san'atini davom ettirib, uning rivojiga katta hissa qo'shganlar. Onabibining "Muboraklar bo'lg'ay", "Arka qizlar", "Xurshidi jahon galdi", "O'lguncha sizni derman" kabi qo'shiqlari bugungi kunda ham o'z tinglovchilariga ega.

O'lanchilik. O'lanlar asosan ko'chmanchi chorvador va yarish ko'chmanchilardan iborat o'zbek urug'lari orasida keng tarqalgan. O'lan so'zi turkiy xalqlar orasida keng qo'llaniladigan atama bo'lib, "xalq qo'shig'i", "ashula", "ulamoq" ma'nolarida qo'llaniladi. Va asosan to'y va

PEDAGOGIKA

mavsumiy ma'rosimlarda kuylangan [13,40-41]. Ularni to'plash va o'rganishda dastlab H.Zarifov, M.Alaviya, Z.Xusainova, T.G'oziboyev, B.Karimiy, M.Murodov, B.Sarimsaqov kabi olimlar katta ishlarni amalga oshirganlar.

Sobiq tuzum davrida milliy musiqa ta'limida ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yildi. Musiqa ta'limida mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmadi va bu xolat xalq tomonidan musiqaga e'tiborni, qiziqishni, musiqa ta'limini o'zlashtirishga bo'lgan munosabatni pasayishiga olib keldi. Bunday xolatning yuzaga kelishiga yana bir sabab aholining asosiy qismi o'zbeklar bo'lishiga qaramay musiqa ta'limi pedagoglarining orasida o'zbeklarning kamligi edi. Shu bilan birga ta'limga, elita hayotiga Yevropa sozlarining kirib kelishi va ommalasha borishi, boshqa tomondan milliy sozlar va musiqani ijro etuvchi avlodning yetishib chiqmasligi ham o'z ta'sirini ko'rsata boshlagan.

XULOSA

Xulosa qilganda, sobiq tuzum davrida o'zbek milliy musiqiy merosiga nisbatan eskilik sarqiti sifatida munosabat shakllantirildi va uning barcha janrlari tazyiqqa olindi. Na maktab ta'limi, na o'rta maxsus ta'lim va na oliy ta'limda milliy musiqiy merosga yetarlicha o'rin ajratildi. Aksincha milliy musiqa sozlarini o'rganish, ulardan foydalanish, milliy musiqani saqlab qolishga doir ta'lim-tarbiya soatlari kamaytirildi. Sovet oliy musiqa maktablarida uzoq vaqt davomida o'zbek xalqi milliy musiqa san'atining haqiqiy bilimdonlariga yo'l berilmadi. Konservatoriya o'zining yarim asrlik faoliyati davomida T.Alimatovdek tanburchi, sato ijrochisini, Ismoil naychidek naychini, Domla Halim yoki Ma'murjondek birorta ijrochini yetkazib bera olmadi. Buning asl sababi milliy musiqa ta'limga e'tiborning, rag'batning, uni rivojlantirishga harakatning yo'qligida edi. Shuningdek, milliy musiqiy merosni o'rganishga jiddiy e'tibor berilmaganligi bois ta'lim dargohlari milliy cholg'u sozlari bo'yicha yetuk sozandalar yetishtirib bera olmadi. Xalq cholg'u sozlari ijrochiligidan ham qator muammolar bo'lib, bular musiqa pedagoglarining malakasini oshirib borish tizimini yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy adabiyotlarning kamligi va cholg'u sozlarining yetishmasligi holatlarida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini milliy musiqiy merosni rivojlantirishdagi yuksak madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki unda badiiy ijod, xususan, musiqa san'ati vositasida yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa insanning faqat hursandchilik kunlarida emas, balki, boshqa estetik faoliyatida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahramand bo'lishga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonsiz badiiy zavq bag'ishlash xususiyatiga ega. Shunday ekan, milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlar orqali bo'lajak kadrlarni hayotiy istaklarini kuchaytirish, o'qishga, kasbiy faoliyatiga ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad berishga urinish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni mukammal ado etish, talabalarining o'quv dasturi materiallarini mukammal muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari juda ko'p va xilma-xil omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar tizimida maktabda musiqa darslarini olib borish uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar va musiqa ta'limi mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi turli xil kerakli manbalarni mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Караматова Б.М. Педагогические основы использования музыкального наследия мыслителей Среднего Востока в учебно –воспитательном процессе школы (на примере уроков музыки): - Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т.: 2000. – 19 с.
2. Хасанова Н.Р. Музыкальная критика современного Узбекистана: состояние, проблемы, тенденции: - Автореф. дисс. ... канд. искусс. – Т.: 2001. – 24 с.
3. Бабаева Л.М. Философско-эстетические основы восточной народно-профессиональной музыки: - Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Т.: 1994. – 4-5 с.
4. Халилов Ф.Н. Дидактические основы инструментально-исполнительской подготовки будущих учителей музыки: - Дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: 2001. – 216 с.
5. Саипова Д.Ю. Муסיкий-назарий билимларни ўзлаштириш жараёнида талаба шахсини шакллантириш (бошланғич синфлар мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2007. -108-109 б.
6. Худойбердиев С. Функциональные особенности традиционного дутара в музыкальной системе таджиков и узбеков: – Автореф. дисс. ... канд. искусс. – Т.: 1994. – 22 с.

7. Расултаев Ж.К. Узбекская традиционная инструментально-исполнительская культура: - Автореф. дисс. ... докт. искусств. – Т.: 2004. – 26 с.
8. Назаров А. Антик давр мусиқа маданияти. –СИТИ. М(м)Н-19. –Б. 19.
9. Ширинов Т.Ш. Тарихимиз этюдлари. –Тошкент.Шарқ. 2008. –Б. 336.
10. Ражабий Ю. Ўзбек мақомлари. Шашмақом. –Тошкент.: 2007. –Б. 68.
11. Матёкубов О. Мақомот. –Тошкент.: Мусиқа, 2004. –Б. 90.
12. Раҳим Ш. 30-35 йил мусиқа йўлида. // Ер юзи. 1926. № 10. –Б. 8-9.
13. Турғунова Н. Санъатда яллагичлик анъаналари // Санъат йўналишларида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Бухоро. 2013. –Б. 40-41.